

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI UCHUN "PEDAGOGIK MAHORAT" DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SHART-SHAROITI

Nosirova Dilfuza

Guliston davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7801529>

**Annotatsiya:** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun „Pedagogik mahorat“ darslari samaradorligini oshirishga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarurligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, mahorat, dars, jarayon, mehnat, zaruriy shart, iqtisodiy madaniyat, tayyorgarlik, qiziqish.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo'lib, u turli fanlar bilan, shu jumladan, mehnat bilan ham qadim-qadim zamonlardan boshlab bog'liqlikda rivojlanib kelgan. Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, moziyda ham eng muhim, bosh masala inson, uni mehnat orqali barkamol etib tarbiyalash bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarda ham mehnatga oid nazariy, ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan boshlab Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" va boshqa juda ko'p didaktik asarlarning har birini ta'lim-tarbiyaga oid darslik desak yangilishmagan bo'lamiz. Mazkur ta'limiy-axloqiy asoslarni insonning ma'naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo'lishini ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari suradi. Xususan A.Avloniy o'z asarlarda shunday fikrlarni bildirgan edi: "Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, yaxshi xulqni o'rgatmoq, yomon xulqdan saqlab o'stirmoq va mehnat qilishga undamoq yaxshidir. Tarbiya qiluvchi inson - tabibdir. Tabib xastaning kasaligiga da'vo qilsa, tarbiyachi - boladagi yaxshi xulqni, poklikni, mehnatga layoqatni davolaydi."

"Pedagogik mahorat" fanining asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir. "Pedagogik mahorat" fani kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish sirlarini o'rgatadi. Talabalar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratadilar.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, O'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining memori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi

insondir. Bugungi kunda u yoshlami g'oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlami mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini hai tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'am xo'rlik qilish, zarur shart - sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy - metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

«Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarini o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.
3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'analarimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.
4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.
6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi.

Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi: Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyi'ligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'qituvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

### References:

1. Barkamol avlod orzusi. - T.. "O'zbekiston Milliy Eensiklof diyasi", 2000 y
2. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarimng roli. - T.: "O'qituvchi", 1993,97 - bet
3. Ochilov M, Ochilova N. O'qituvchi odobi". - T.: O'
4. Tolipov O'.K., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari - T., 2006
5. Tilavova M,M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari. T., 2007
6. Karimov I. O'qituvchi, ustoz, murabbiy...: Talabalar va yosh o'qituvchilar uchun. //Risola. - Qo'qon DPI, 2009. - 99 b.
7. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiv nomli TDP 2005.- 149 b.
8. Elmuratova, D. M. (2017). Theoretical basis of training future teachers to innovative professional activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
9. Элмуротова, Д. М. (2019). Бошланғич синф ўқитувчисининг инновацион фаолиятга касбий тайёргарлигининг асосий кўрсаткичлари. *ТДПУ Илмий Ахборотномаси, илмий-назарий журнал.–Тошкент*, (1), 63-68.

10. Элмуратова, Д. (2017). Проблемы подготовки будущих учителей начального образования к профессиональной деятельности. In *Интеграция науки и практики в современных условиях материалы VIII Международной конференции* (pp. 91-93).
11. Элмуратова, Д. Талабаларда креативликни ривожлантириш йўллари. *Биология фанининг долзарб муаммолари ва уни ўқитишда инновацион технологиялар илмий-амалий анжуман материаллари тўплами*. Б, 138-141.
12. Элмуратова, Д. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини табиатшуносликдан касбий фаолиятга тайёрлашнинг ўзига хос жиҳатлари. *Тафаккур сарчашмалари. Магистрларнинг илмий-амалий мақолалари тўплами*. Б, 247-249.
13. Элмуратова, Д. Asmelogig aspekt of professional-pedagogical preparation of the future teacher of initial classes. In *Молодежь и наука: шаг к успеху Сборник научных статей Всероссийской научной конференции перспективных разработок молодых ученых* (pp. 10-13).
14. Элмуратова, Д. (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ ШАКЛЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ. *Scientific progress*, 2(8), 220-223.
15. Элмуратова, Д. (2018). INNOVATIVE METHODS OF TEACHING STUDENTS IN HIGH EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 223.
16. Elmuratova, D. (2018). THE MAIN INDICATORS OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATIVE ACTIVITY. *Central Asian Journal of Education*, 2(1), 63-68.